XALQ DEPUTATLARI ANGOR TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 29-dekabr VII-17-149-8-109-K/25 Angor tumani

Angor tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/142-sonli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 25-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Angor tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **106 116 740.0 ming.so‘m** va xarajatlari esa **106 116 740.0 ming.so‘m**ga ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Tuman budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq;

tuman budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 3-ilovaga muvofiq;

tuman budjetiga 2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma meyorlari 4-ilovaga muvofiq;

tuman mahalliy budjetida 2026-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 mlrd 333 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Yuldashev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Kuchkarov), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Xudoyqulov) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni bo‘yicha doimiy komissiyasi (R.Qabulova) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (U.Yuldashev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **MARDONOV QOSIM ESONOVICH**

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-8-109-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Angor tumani mahalliy budjet daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

№	Daromad turlari	Jami prognoz (ming soʻm)
1	QQS soligʻi	2 138 800
2	Foyda soligʻi	2 504 500
3	Aylanmadan olinadigan soliq	6 707 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	31 619 040
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari boʻyicha toʻlanadigan daromad soligʻi	1 217 000
6	Aksiz soligʻi	0
	shu jumladan:	
	Yakuniy isteʼmolchilarga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi	*0*
	Alkogol mahsulotlari	*0*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 664 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk soligʻi	11 108 000
9	Jismoniy shaxslar yer soligʻi	22 269 000
10	Yuridik shaxslar yer soligʻi	12 282 000
11	Qurilish materiallari boʻyicha yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq	30 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 368 400
	Maʻlumot uchun	
	Qishloq xoʻjaligi korxonalari suv soligʻining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 941 600
13	Davlat ulushi boʻyicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
14	Davlat boji	5 195 500
15	Yigʻimlar	1 111 500

16	Jarimalar	1 580 000
17	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	322 000
	JAMI:	**106 116 740**

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-8-109-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Angor tumani budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	miqdori (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, jami		**106 116 740**
1	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	*30 502 801*
	shundan:	
	"Mening maktabim"	*2 904 600*
2	Madaniyat bo‘limi	*3 068 621*
3	Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘limi	*2 476 307*
4	Sport bo‘limi	*5 357 514*
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*0*
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*3 111 240*
7	Irrigatsiya bo‘limi	*1 399 057*
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	*0*
9	Ijtimoiy himoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	*164 651*
10	Hokimiyat	*42 443 761*
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 710 511*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 918 594*
	Madaniyat bo‘limi	*168 439*
	Yoshlar ishlari agentligi hududiy bo‘limi	*386 989*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*201 330*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*494 825*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*890 610*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*335 113*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*19 362 568*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 193 067*
	Zahira jamg‘armasi	*1 333 000*

11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	*962 976*
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*30 067*
	Axborot-kutubxona markazlari	*932 909*
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 629 812
13	Boshqa tashkilotlar	0

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-8-109-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

(Ming.so‘mda)

Hudud nomi	**Daromad**	**Xarajat**
Angor tumani	106 116 740	106 116 740

Xalq deputatlari Angor tumani Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-8-109-K/25 -son qaroriga
4-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Boshi

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Angor tumani	0%	50%	100%	50%	0%	57%	100%	43%	0%	100%	100%	0%	0%	50%	100%	50%

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

davomi

№	Hududlar nomi	alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Angor tumani	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

davomi

№	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i				Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq				Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq				Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar			
		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman (shahar)lar budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar
1	Angor tumani	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	0%	100%	100%

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

Oxiri

№	Hududlar nomi	Davlat boji		Jarimalar		Yig‘imlar		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i		Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i		Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	
		Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar) lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga	Tuman (shahar)lar budjetiga	Viloyatning viloyat budjetiga
1	Angor tumani	50%	50%	20%	80%	50%	50%	100%	0%	100%	0%	100%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar hamda viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman va shaharlar budjetiga qoldiriladi.

3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Angor tumani
Kengashining
2025-yil 29-dekabrdagi
VII-17-149-8-109-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Angor tuman mahalliy budjetida 2026-yil uchun yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

T/r	Hudud nomi	Miqdor (ming.so‘m)
1	Angor tumani	270 445